

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov

Raqamli ta'lif muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi..... 8

B.Shermuhammadov, D.Namozova

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli..... 13

B.Shermuhammadov, B.Baratov

Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari 18

D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarmanova

Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish..... 22

B.Qurbanova

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'lifda ta'lif jarayonini samarali tashkil etish 25

I.Siddiqov

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari 29

A.Xo'jayev

Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 33

X.Qodirov

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari 38

B.Baydjanov

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi 42

A.Turaxanov

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 49

R.Madalyev

Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati..... 52

X.Yulbarsova

Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 56

A.Soyibnazarov

Ta'lifda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lif..... 62

S.Kamchiyev

Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati..... 67

N.Mamatqulova

Ta'lifda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari 71

S.Sulaymanova

Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari..... 75

M.Aripjanova

Professional ta'lif o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili 80

D.Yo'idosheva

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari 83

N.Dusimbetova

Bo'lajak jurnalislarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati..... 88

T.Turgunbayev

Harbiy ta'lifda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari 92

N.Yuldasheva

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar 95

**BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI METODIK YONDASHUVLAR**

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

**METHODICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL
COMPETENCE OF THE FUTURE PHYSICAL CULTURE TEACHER**

Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna¹

¹**Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna¹**

– Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, farg'onha filiali, o'qituvchi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisinining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda foydalilaniladigan metrodlarning talqini, kasbiy qobiliyatlari, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi rolida noan'anaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yorilgan.

Аннотация

В данной статье описывается трактовка методов повышения профессиональной компетентности будущего учителя физической культуры, профессиональных навыков, значение нетрадиционных педагогических технологий в роли будущих учителей физической культуры в общественной и культурной жизни.

Abstract

This article describes the interpretation of methods used to improve the professional competence of the future physical culture teacher, professional skills, the importance of non-traditional pedagogical technologies in the role of future physical culture teachers in the social and cultural life.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy qobiliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif, maqsadli ta'lif.

Ключевые слова: физическая культура, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональные способности, личностно-ориентированное образование, целевое образование.

Key words: physical culture, competence, professional competence, professional ability, person-oriented education, targeted education.

KIRISH

Respublikamizda shaxsiy ta'lif modeli yaratilgan bo'lib, u ta'lif muassasalari tizimiga muvaffaqiyatli joriy etilmoqda, bunda jismoniy tarbiya va sport tizimini yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash va ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etish va ma'nnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi" [1; PF-5847] muhim vazifa etib belgilangan, jamiyatimiz jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari va adaptiv jismoniy tarbiya amaliyoti oldinga qo'yadigan o'ziga xos vazifalarini inobatga olgan holda turli xil ilmiy sohalardagi bilimlardan foydalana oladigan keng tarmoqli jismoniy tarbiya xodimlariga katta ehtiyoj sezmoqda, avval to'plangan katta hajmdagi axborotni o'z ichiga oluvchi yanada chuqur g'oyalari va tushunchalarni umumlashtirish hamda ishlab chiqish jarayonlarini jadallashtirishning yangi taktik va strategik yo'llarini izlab topish zarur, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ta'lif tizimini takomillashtirish hamda uni xalqaro andozalarga moslashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash kabi ustuvor vazifalarga muvofiq ta'lif jarayoni mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish ta'lif tizimining muhim vazifasiga aylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda kompetentlik, kasbiy kompetentlik, jumladan, umumiyl o'rta ta'lif muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari bo'yicha tadqiqotlar N.N.Azizxodjaeva, R.SH.Axliddinov, U.SH.Begimqulov, N.T.To'xtaboyev, U.I.Inoyatov, Y.U.Ismadiyarov, R.G.Isyanova, SH.E.Kurbanov, R.G.Mullaxmetov, E.A.Saytxalilov, N.I.Taylaqov, Z.Y.Yuldashev, R.X.Jo'raev, M.B.Urazova va SH.N.Muslimovlar;

o'qituvchilar malakacini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarida kacbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar A.R.Isyanova, SH.Q.Mardonov, M.T.Mirsoleyva, J.G'.Yo'ldoshev, R.X.Shaymardanov, M.B.Matnazarova kabi pedagog olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

E.A.Saytxalilovning ta'kidlashicha, jismoniy tarbiyaga ixtisoslashgan ta'lismuassasalari, oliv o'quv yurti bo'la turib, o'ziga xos juda noyob hisoblanadi, chunki inson kapitalini ham o'z sohasi uchun, ham davlatning butun xalq xo'jaligi miqyosida qayta ishlab chiqarish muammosini hal etishga imkon beradi. Bu shunga bog'liqki, jismoniy tarbiya OTMlari soha ehtiyojlari uchun trener-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi, bitiruvchilarning kasbiy faoliyati xususiyati millatni sog'lomlashtirishga, xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qiluvchi aholi turli guruuhlarining turmush chidamliligini oshirishga qaratilgan. Yetakchi mutaxassislar (T.S.Usmonxodjaev, SH.X.Xankeldiev, F.A.Kerimov va boshq.) fikricha, oliv ta'limgi isloh qilishning zamonaviy bosqichi – bu avval to'plangan ijobiy tajribani anglash, uning natijalarini oliv maktabni rivojlantirish vazifalari, uni qayta qurish jarayoni haqiqatlari bilan taqqoslash bosqichidir. Umuman olganda, jismoniy tarbiya ta'limi maqsadli rivojlantirish dasturi zarur va u jismoniy tarbiya mutaxassisining ijtimoiymadaniy roliga muvofiq zarur o'zgartirishlarni amalga oshira oladigan yuqori malakali professional kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari o'zları, birinchi navbatda, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy hodisalarining jamiki boyligini anglab yetishlari lozim, keyinroq esa jamiyatda bugungi kunda ustunlik qilayotgan utilitar tushunchani emas, balki falsafiy tushunchalarni jamiyat ongiga singdirishlari zarur. Bu jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining obro'si va nufuzini ko'tarishga, jismoniy tarbiya-sport harakatining ommaviyligini haqiqatdan ham oshirishga hamda "jismoniy tarbiya va sport" sohasining gullab-yashnashini ta'minlashga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtida jismoniy tarbiya maqsadlari va vazifalarini tubdan qayta yo'naltirishga alohida ahamiyat qaratilishi lozim. Birinchi navbatda, gap muayyan jismoniy sifatlarni, hayotiy muhim harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan tizimdan insonga o'z organizmi, jismoniy holatiga maqsadli ta'sir ko'rsatuvchi vositalar, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan vositalar to'g'risida chuqur bilimlar beruvchi tizimga o'tishi haqida ketmoqda. Jismoniy tarbiya vositalari orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish vazifasi asosiy vazifa sifatida qo'yiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'limgi sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarini bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiyalablarini anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "**qobiliyat**" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Bo'lajak o'qituvchi kompetensiyasi o'quv jarayonini boshqarishdagi qobiliyati va shaxsiyatini bildiradi, o'qitish strategiyalari va resurslardan foydalanish orqali ta'limgi usullari va o'rganish uslublarini bilish, qobiliyat kabi talab qilinadi talabalarga bilim olish va qo'llashga yordam beradigan muvaffaqiyatli o'qitish amaliyotini amalga oshirishdan iborat. V.F.Kospochenko fikricha, maxsus kasbiy ta'limgi – bu kasbiy ta'limgi o'ziga xos kvintessentsiyasidir, bilimlarning integratsiyalashuvi, fanlararo aloqalarning ro'yogha oshirilishi kabi zamonaviy tendentsiyalarga asoslanuvchi jarayondir. [2; 40-c.]

Maxsus kasbiy ta'limgi kasbiy-pedagogik faoliyatning real shart-sharoitlarini modellashtiradi. U borliqni bilish va qayta qurishda tizimlilikning metodologik tamoyilining ifodalananish shakli sifatida

PEDAGOGIKA

qatnashadi. Biron-bir alohida olingen o'quv fani talabaga kompleks, kasbga yo'naltirilgan holda, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta'sirga ega emas, biroq ularning har biri ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarga ega. [3;15-6.]

Kasbiy qobiliyatlar ikki turga bo'linadi: akademik va pedagogik. Akademik qobiliyat o'qituvchining fan bo'yicha bilimini bildiradi. Pedagogik qobiliyat qanday qilib o'qituvchi ma'lumdan noma'lumga o'qitish kabi g'oyalarga rioya qilgan holda fanni o'rgatishi mumkin; konkretdan mavhumga va oddiydan murakkabga.

O'qituvchining o'qitish amaliyotini rejalashtirish qobiliyati uning sinfdagi samaradorligini belgilaydi.

Ko'pgina maqsadli ta'lim dasturlari asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiysi yotadi. Ushbu yondashuvning mohiyati ta'lim jarayoni subyektlarining yaxlit namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'z o'zini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'zining texnologiyasiga ega, bu motivlarni belgilash, shuningdek, ta'lim maqsadi va vazifalarini anglash; talabalarning oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llarini bilish; asosiy ta'limni egallash; ta'lim jarayoni va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi dinamikasini ilmiy asoslangan holda aniqlashni nazarda tutadi

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim zamonaviy pedagogik ongda ikkita darajada mavjud: oddiy va ilmiy. Birinchinga sherikchilikni, hurmat qilish, hamkorlik, dialog, ta'limni individuallashtirish g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan ta'limda shaxsga yondashuv to'g'risidagi tasavvur kiradi.

Ilmiy tasavvurga kelsak, u qanday fan predmeti doirasida ushbu konsepsiya qarab chiqilayotganligiga bog'liq holda turli xil konseptual tushunchalar tuzilmasiga ega. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bu ma'lum bir xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish emas, balki ta'lim jarayoni subyektlarining shaxsiy funksiyalarini to'liq namoyon qilish va tegishli tarzda rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdir. Amaliyotdagi shaxsga xos yondashuv – bu nafaqat o'quvchining balki, o'qituvchining ham shaxsiga asoslanuvchi pedagogikadir. Hozirgi paytda ta'limdagi qat'iy o'zgarishlar tabaqaqalashtirilgan ta'lim kirib kelishi bilan bog'liq, tabaqaqalashtirilgan ta'lim deganda individual yondashuv talabalarini amalga oshirishga qaratilgan o'quv jarayonining o'ziga xos tarzda tashkil qilinishi tushuniladi.

Alovida talabalarning individual xususiyatlarini bilish va butun jamoani rivojlanish darajasi mashg'ulot maqsadlari va vazifalarini qo'yishda, o'quv materiali mazmunini tanlashda, ta'lim metodlari, usullari va shakllarini tanlab olishda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Vatanimiz mualliflarining bir qator ilmiy ishlari [4; 445-6.] tabaqaqalashtirilgan ta'limni tashkil qilishning turli xil usullari taklif qilingan. Tabaqaqalashtirilgan ta'limni bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan va har bir bosqich xususiyatlari aniqlangan. Noan'anaviy pedagogik texnologiyalarni jamlash va ularning elementlarini tanlab olingen talabalar guruhining o'ziga xos xususiyatlarga mos tarzda uyg'unlashtirish usullari ko'rsatib berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, jismoniy madaniyat fakultetlarida kasbiy ta'lim kompetensiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagi vazifalarning hal etilishiga qaratilishi kerak:

- jismoniy tarbiya mutaxassisiga ijtimoiy xodim maqomini berish;
- yangi ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qoniqtirish asosida jismoniy tarbiya fanining rivojlanishini jadallashtirish;
- keng soha mutaxassislari fundamental tayyorgarligining eng taraqqiy etgan shakllarini ishlab chiquvchi va tarqatuvchi o'quv-metodik markazlar tizimini yaratish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishni ta'minlovchi yangi tashkiliy tuzilmalar va texnologiyalarni yaratish;
- talabalarning kasbiy kompetentligi shakllanganligini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni/ "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi".09.10.2019y.,06/19/5847. (Decree No. PF-5847 of October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030"/ "National database of legal documents".October9,2019.06/19/5847.)
2. Коспоченко В.Ф. Концепция специального профессионального образования в вузах физического культуры в современных условиях: Авто- реф. дис. ... докт. пед. наук. - СПбГАФК, 1997. 40-с. (Kospochenko V.F.

The concept of special vocational education in higher education institutions of physical culture in modern conditions:
Abstract of the thesis. dis. ... doc. ped. Sciences. - SPbGAFK, 1997. 40-p.)

3. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. - Т.: Фан ва технология нашриёти, 2013. 15-б. (Muslimov N.A. and others. Technology of formation of professional competence of teachers of vocational education / Monograph. - T.: Science and technology publishing house, 2013. p. 15.

4. Toshtemirova, S. Chirchik experience in education. Academic research in Educational Sciences 1 (3), 2020. p. 445. (Toshtemirova, S. Chirchik experience in education. Academic research in Educational Sciences 1 (3), 2020. p. 445.)

5. Хамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва кўллаш технологияси: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. - Тошкент: 2017. (Khamidov Zh.A. Technology of creation and application of modern didactic teaching tools in the training of future vocational teachers: Doctorate in Pedagogy (DSc) dissertation and author's abstract. - Tashkent: 2017.)